

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
TOSHKENT FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.06/09.07.2020.Qx/V.117.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
TOSHKENT FILIALI**

**YANGIBOYEV ABDIMALIK ESHMURODOVICH**

**RESPUBLIKAMIZDA YARATILGAN O‘ZBEKISTON -83 NAVLI  
XASHAKI LAVLAGINI SIGIRLAR SUT MAHSULDORLIGIGA TA’SIRI**

**06.02.03 - Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich**

Respublikamizda yaratilgan O‘zbekiston -83 navli xashaki lavlagini sigirlar sut mahsuldorligiga ta’siri .....3

**Янгибоев Абдималик Эшмуродович**

Влияние сорта кормовой свеклы Узбекистан -83, созданного в нашей республике, на молочную продуктивность коров .....21

**Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich**

The influence of Uzbekistan -83 variety beet created in our republic on the milk production of cows.....42

**E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati**

**Spisok opublikovannых rabot**

List of published works.....45

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
TOSHKENT FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.06/09.07.2020.Qx/V.117.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
TOSHKENT FILIALI**

**YANGIBOYEV ABDIMALIK ESHMURODOVICH**

**RESPUBLIKAMIZDA YARATILGAN O‘ZBEKISTON -83 NAVLI  
XASHAKI LAVLAGINI SIGIRLAR SUT MAHSULDORLIGIGA TA’SIRI**

**06.02.03 - Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Qx778-raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**  
qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent

**Kuchchiyev Oxunjon Razzoqovich**

**Rasmiy opponentlar:**

.....  
qishloq xo‘jalik fanlari doktori

.....  
qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

.....

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali huzuridagi qishloq xo‘jaligi va veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.06/09.07.2020.Qx/V.117.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100117, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20-mavze, 35A-uy. Tel: (99870) 9758311); e-mail: [svmi.tfiyandex.ru](mailto:svmi.tfiyandex.ru), [www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100117, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20-mavze, 35A-uy. Tel: (99870) 9758311; e-mail: [svmi.tfiyandex.ru](mailto:svmi.tfiyandex.ru), [www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz); faks: (99870) 9758311).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil «\_\_\_» \_\_\_dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**N.Yu.Yuldashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, v.f.d., professor

**M.E.G‘oyipova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, v.f.f.d. (PhD)

**S.I.Mavlanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, v.f.d.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunga kelib dunyo aholisining kundalik ehtiyojiga aylangan chorvachilik mahsulotlari – go'sht, go'sht mahsulotlari hamda sut, sut mahsulotlariga bo'lgan talabi oshib bormoqda. Chorvachilikda ozuqa bazasini mustahkamlashda xashaki lavlagining ahamiyati katta hisoblanadi. 1 kg xashaki lavlagi ildizmevasida 0,11-0,12 ozuqa birligi, 120 g quruq modda, 12-13 g xom hazmlanuvchi protein, 0,50 g kalsiy, 0,20 g fosfor mavjud. 1 kg bargpoyasida 0,10-0,11 ozuqa birligi, 21 g hazmlanuvchi protein, 1 kg nimqand lavlagi bargpoyasida 0,16 ozuqa birligi, 19 g hazmlanuvchi protein mavjud (И.В.Мартинюк, 2009). Chorvachilik sohasida qoramollarni mahsuldorligini oshirish va sog'lom bola olish maqsadida mustahkam ozuqa bazasini yaratish, chorva mollarini to'la qiymatli oziqlantirishni tashkil etish, yetarlicha to'yimli ozuqalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda xashaki lavlagi shirali ozuqa sifatida chorva mollariga beriladi. Xashaki lavlagi namga talabchan, yorug'sevar, sovuqqa chidamli o'simlik hisoblanadi. Amerika (AQSh, Kanada, Braziliya), Yangi Zelandiya, Afrika (Jazoir, Tunis), Yevropa, shu jumladan, Rossiya, Belorussiya, Ukraina, Boltiqbo'yi mamlakatlarida ko'p ekiladi. Dunyo bo'yicha o'rtacha ildizmeva hosildorligi 800-1100 s/gani tashkil qiladi. Xashaki lavlagi hosilini oshirishda urug'chilik ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har bir joyda tuproq-iqlim sharoitlariga mos navlarni tanlab ekishga e'tibor qaratish kerak (Т.А.Горбунова,1996). Chorva mollarini shirali ozuqalar berish natijasida qon tarkibini makro-mikro elimentlarga boyitiladi. Natijada sutning sifati yaxshilanadi, kunlik sog'ib olish miqdori oshishi, sog'lom bola olish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda oxirgi yillarda chorvachilik sohasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Chorvachilikni yanada rivojlantirish, qishloq xo'jalik hayvonlari mahsuldorligini oshirish, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirib borish muhim vazifalardan biri bo'lib, sohada mustahkam oziqa bazasini yaratish, tuproq iqlim sharoitlariga ham bog'liq holda har bir gektar yerdan yetishtiriladigan ozuqa birligini oshirib borish lozim. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotlari ulushida chorvachilik sohasi ham alohida o'rin egallab aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun sohada mustahkam ozuqa bazasini yaratish, chorva mollarini to'la qiymatli oziqlantirishni tashkil etish, hayvonlar oziqa ratsioniga ozuqabop lavlagi O'zbekiston-83 navini qo'shib berish ularning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishni oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son qarorida “.....chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish...”,<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31 martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-187-son qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli meeyoriy huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi”, “Veterinariya va chorvachilik” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:** Ushbu muammolarga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ozuqalar uglevodlari sog‘in sigirlar tomonidan ularning to‘yimli va mineral moddalarini hazmlanishi va ishlatilishida muhim ahamiyatga ega. Ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda A.П.Калашников va boshqalar, С.Н.Хохрин, К.К.Карибаев, D.Q.Yuldashev, Л.Илина, Ю.Петрушенко va bosh., Г.Лаптев, Л.Кряжевских, Л.Морозова, И.Миколайчик va bosh., Р.Некрасов, М.Вареников va bosh., А.Коробов, И.Калюжный va bosh., В.Кумарин, А.Никитенков, В.Ширяев, В.Валеев, L.Bill et al, R.Jonson K.Dolga, A.Goombe et al, P.Mandevu, С.Ballard i dr, L.M.Trevaskis, W.J.Fulkerson, Hall, С.Larson va bosh., Р.Некрасов, М.Вареников va bosh., tomonidan uglevodlarning chorva mollari mahsuldorligi, mahsulotlari sifati, ozuqalarning so‘rilishi va hazmlanishiga ta‘sirlari yoritilib berilgan. Bu olimlarning ilmiy maqolalarida uglevodlarning ratsionlarda yetishmasligi dastlab ratsionning to‘yimli moddalarni so‘rilishi va hazmlanishiga keyinchalik uning oqibatida chorva mollarining mahsuldorligi tushib ketishi va mahsulotlarning sifatini yomonlashuvi kuzatilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, turli ildizmevali ozuqalarni chorva mollariga yeyishga tayyorlash ustida ko‘pgina olimlar, jumladan С.Н.Шуханов, П.Н.Кузнецов, В.Э.Зубков, С.В.Соловев, В.И.Горшенин, А.В.Кузмин, Г.П.Юхин, В.М.Мартинов, А.Г.Нагорний, В.В.Труфанов, С.А.Найданов, В.А.Пучков, В.И.Сиворотка,

---

<sup>1</sup> 2022 yil 8 fevral, PQ-120-son qarori asosida «Mamlakatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash to‘g‘risida»gi qarori

В.А.Сероватов, А.В.Дервиш, Л.И.Слав, П.И.Пороховскийлар ishlar olib borganlar.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya bo'yicha tadqiqot ishlari 2020-2022 yillarda I-OT-2020-23 "Toshkent viloyati turli tuproq-iqlim sharoitlarida kasalliklar va zararkunandalarga chidamli ozuqabop lavlagining O'zbekiston-83 navi birlamchi urug'chiligini tashkil etish va viloyatni yuqori avlod urug'lar bilan ta'minlash" mavzusidagi innovatsion, hamda 2021-2022 yillarda bajarilgan "Turli tuproq iqlim sharoitlarida kasallik va zararkunandalarga chidamli ozuqabop lavlagining "O'zbekiston-83" navi birlamchi urug'chiligini tashkil etish" mavzusidagi tijoratlashtirish loyihalari ish rejalariga bog'liq holda olib borildi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Xashaki lavlagining "O'zbekiston-83" navi ildizmevasi bilan oziqlantirish orqali sog'in sigirlar ratsionlarida kuz-qish davrida kuzatiladigan oqsil-qand nisbatining buzilishini oldini olish va sog'in sigirlarning sut mahsuldorligini oshirish, ularning sut berishida kechadigan moddalar almashinuvi buzilishlarini oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

xashaki lavlagining sog'in sig'irlar ratsionida turli miqdorlarda qo'llashda eng maqbul miqdorini qo'llash natijasida sog'in sig'irlar pushtdorlik faoliyatiga ta'sirini aniqlash;

tajribadagi sigirlarining sutdorlik koeffitsienti aniqlash;

sog'in sigirlar ratsionida qo'llashning sut mahsuldorligi va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tajribadagi sigirlarning oziqani sut bilan qoplash xususiyatlari

**Tadqiqot ob'ekti:** Mazkur tadqiqotning asosiy ob'ektlari Toshkent viloyati Qibray tumani Saman samo naslchilik fermer xo'jaligidagi Golshtinlashtirilgan qora-ola zotli qoramollar, xashaki lavlagini sog'in sigirlar ratsioniga qo'shib berish texnologiyalaridan iborat.

**Tadqiqotning predmeti.** Tadqiqotlarda xashaki lavlagi "O'zbekiston-83" navi urug'ini yetishtirish texnologiyasi, ildizmevasini sog'in sigirlar ratsioniga qo'shib berish natijasida sut mahsuldorligini oshishi va sut sifatiga ta'siri, sog'ligi yaxshilanishi, klinik va bikimyoviy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy tadqiqotni bajarishda, ozuqalar tahlili standart talablari asosida OOO "Zamona Rano" MChJ laboratoriyasida umumqabul qilingan П.Т.Лебедев, А.Т.Усович., В.А.Петухова va boshqalar uslublaridan, ko'rsatkichlarning statistik qayta ishlashlari: o'rtacha arifmetik va uning xatosi, guruhlararo farqning ishonchlilik darajasi (Меркурева Е.К, Плахинский Н.А.,

hamda iqtisodiy (jami harajatlar, 1 s mahsulotning tannarxi, harid narxi, sof foyda, samaradorlik darajasi) usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Ushbu tadqiqotlarda ilk bor “O‘zbekiston-83” navli lavlagining ildizmevasini golshtinlashtirilgan qora-ola zotli sigirlar oziqasiga bir kunda 12 kg qo‘shib berilganda sut mahsuldorligini 1,4 kg yoki 8,1% ga oshganligi isbotlangan;

“O‘zbekiston-83” navli lavlagining sog‘in sig‘irlar bir kunlik ratsioniga meyor asosida 12 kg qo‘llash texnologiyasi natijasida sog‘in sig‘irlar pushtdorlik faoliyati 5,3 % ga oshganligi aniqlangan;

“O‘zbekiston-83” navli lavlagini 6,7% ozuqa birligini sog‘in sigirlar oziqasiga qo‘shib berish texnologiyasini qo‘llash natijasida sigirlar sutining bazis yog‘iligi 11,5 %, o‘rtacha yog‘ miqdori 10,1%, oqsil 7,3% va qand 41,4%, karotin 121,6%, oqsil 0,4%, kalsiy 6.1 % va qand miqdori 21,9 % ga oshganligi isbotlangan;

I va II guruh tajribadagi sigirlarining sutdorlik koeffitsienti nazorat guruh sigirlardan tegishli ravishda 112,5 kg yoki 15,3% ga va 42,3 kg yoki 5,7% ga yuqori bo‘lganligi isbotlangan;

I tajriba guruhiga nisbatan II tajriba guruhi har bir bosh sigirlarning laktatsiya mobaynida nazorat guruhidagi bir bosh sigirga nisbatan 201000,00 so‘m xarajat qilingan bo‘lib, iqtisodiy samaradorlik darajasi I guruhda 27,4 % va II tajriba guruhda 21,0% ni , nazorat guruhiga nisbatan 6,8 va 0,4% ga oshganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xashaki lavlagini sut berish davrida sog‘in sigirlar sut mahsuldorligi va sutining kimyoviy tarkibi tahlil qilingan;

sutning kimyoviy tarkibi aniqlangan, kuz-qish davrida sigirlarlarning klinik, gematologik ko‘rsatkichliklari va iste‘mol qilgan ozuqasini mahsulot bilan qoplash darajalari aniqlangan;

davrlar kesimida oziqlantirishning sut mahsuldorligi bilan bog‘liqligini tahlil qilingan hamda iqtisodiy samaradorligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilmiy tadqiqot natijalari hamda birlamchi hujjatlarda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universtiteti Toshkent filiali va veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining ilmiy natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sut yo‘nalishidagi sigirlar ratsioni xashaki lavlagi hisobiga uglevodli qismini yaxshilash hisobiga sog‘in sigirlarning sut mahsuldorligi ko‘rsatkichlarini takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilashning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa turli sudor sigirlarning sut mahsuldorligi irsiy imkoniyatlarini namoyon etishini oshirish, olingan sut mahsulotlari birligiga ozuqa sarfini kamaytirish, yuqori sifatli sut ishlab chiqarishni ko'paytirishda ilmiy asoslangan davrlar kesimida oziqlantirish usullarining samaradorligini aniqlashda o'z aksini topadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xashaki lavlagi "O'zbekiston-83" navi ildizmevasi sigirlar sut mahsuldorligiga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Golishtinlashtirilgan qora-ola zotli sigirlar podasi Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi "Saman Samo" fermer xo'jaligida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 08.06 dagi 02/23-147-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy yngilikning natijada, 2 laktatsiyada sigirlarning sut mahsuldorligi 4225,4 kg ga har bir bosh sigirdan 5937300 so'm sof foyda olingan.

Golishtinlashtirilgan qora-ola zotli sigirlar podasi Yangiyo'l tumani "Jamol ota chorva nasl" fermer xo'jaligida ikkinchi laktatsiyadagi sigirlarning sut mahsuldorligi amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 08.06 dagi 02/23-147-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, golishtinlashtirilgan qora-ola zotli har bir sigirdan 5828300 so'm miqdorida sof foyda olingan.

Golishtinlashtirilgan qora-ola zotli sigirlar podasi Yangiyo'l tumani "Muxtor ota nabiralari" fermer xo'jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 08.06 dagi 02/23-147-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqarishda har bir bosh sigirdan 5819400 so'mgacha sof foyda olingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali (2020-2022), xalqaro konferensiyalarda, respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda, yillik hisobot yig'ilishlarida muhokamadan o'tkazilib, ijobiy baholangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlarida 4 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, shundan xorijiy jurnallarda 1 tasi chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 105 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida bajarilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati ilmiy jihatdan asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, ob'ekti hamda predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot rejaları bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinishi hamda dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida xashaki lavlagi to'yimli moddalari bo'yicha kartoshka va qand lavlagi keyingi o'rinda turadi va o'rtacha 12 % quruq moddaga ega. Yerga yaxshi ekilgan katta yirik ildizmevali siyrak ekilgan ozuqa lavlagilari quruq moddasi va to'yimli moddalari bo'yicha qalin ekilgan o'rtachalaridan ortda qoladi. Xashaki lavlagining quruq moddasi asosan uglevodlardan tashkil topgan va uning asosiy qismini qand va pektin moddalari tashkil etadi. Ushbu birinchi bobda sigirlar sut mahsuldorligiga xashaki lavlagi ildizmevasining ta'siri hamda urug'ini jadal usulda yetishtirish texnologiyasi bo'yicha, jumladan, mavjud ozuqa ratsionlarida uglevodlarning roli va ahamiyati, ular yordamida kuz-bahor davrida qishgi ratsionlarning oqsil-uglevodlar nisbatini yaxshilash yo'llari, oziqlantirishda sog'in sigirlar ratsionlarida ugevodli oziqlantirish holati bahosi, chorva mollari uchun uglevodli ozuqalar tayyorlash holati, xashaki lavlagi yetishtirish texnologiyalari bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qisqa sharhlangan.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqotlarni o'tkazish joyi, manbai va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan hududning tabiiy-iqlim sharoiti, tadqiqot predmetlari, materiallari va uslublari bayon qilingan.

Ilmiy tadqiqot ishlarining tajriba qismi 2020-2022 yillarda loyiha bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar 2019-2022 yillarda Toshkent viloyati Qibray tumanidagi “Saman Samo” naslchilik fermer xo'jaligida Golishtinlashtirilgan qora-ola zotli sut yo'nalishidagi qoramolarda olib borildi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida qora-ola zotli sut yo'nalishidagi qoramollar, hamda xashaki lavlagining “O'zbekiston-83” navi tanlangan. Tadqiqotlar davomida hayvonlarni oziqlantirish, ozuqalarning to'yimlilik va kimyoviy tarkibi, hayvonlarning klinik va gematologik ko'rsatkichlari, ozuqani mahsulot bilan qoplash darajasi, tadqiqot natijalarini iqtisodiy baholash, tajribalarda olingan ma'lumotlarga biometrik ishlov berishda qo'llanilgan usullar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot natijalari va muhokamasi**” nomli uchinchi bobida xo‘jalik ratsionini to‘yumliligini o‘rganish va uni o‘zgartirish natijalari, xashaki lavlagini ratsionlarda qo‘llashda sog‘in sigirlar mahsuldorligi va sutining kimyoviy tarkibi, sut sifati ko‘rsatkichlari, ozuqalar xarajatlariga ta’siri, xashaki lavlagili ratsionlarda boqilgan sigirlarning klinik va ular qonining biokimyoviy-morfologik ko‘rsatkichlari, hamda ozuqalar sarfi yo‘nalishida olib borilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan. Mazkur bobning “Xo‘jalik ratsionini to‘yumliligini o‘rganish va uni o‘zgartirish natijalari” bo‘limida xo‘jalik ratsioni tahlili va uni o‘zgartirish natijalari keltirilgan. Tajribalar boshlanishidan oldin xo‘jalikning qishgi davrga bo‘lgan ratsioni o‘rganildi va to‘liq tahlil qilindi.

**1- jadval**

**Tajriba guruhidagi sigirlarga II laktatsiya davomida ozuqalar sarfi  
(o‘rtacha bir boshga)**

Ozuqalar va ularning to‘yumliligi	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
Bug‘doy somoni	1220	1220	1220
Turli o‘t pichanlari	1835	1835	1835
Makkajo‘xori silosi	4575	4575	4575
Beda senaji	3050	3050	3050
Xashaki lavlagi	1830	3660	3050
Bug‘doy kepagi	915	915	915
Paxta shroti	305	305	305

Tajribadagi sigirlarga sarflangan ozuqalarda I tajriba guruhida har bir ozuqa birligiga 114,0 g, II tajriba guruhida 114,8 g va nazorat guruhida 116,1 g xazmlanadigan protein to‘g‘ri keldi. Shuningdek, qand-oqsil nisbati I tajriba guruhida 0,63:1 nisbatga, II tajriba 0,59:1 nisbatga va nazorat guruhi 0,50:1 nisbatga teng bo‘ldi. Xo‘jalikning imkoniyatidan kelib chiqqan holda tajriba ratsionida xo‘jalik ratsionida kuzatilayotgan to‘yimli va mineral moddalar bilan sigirlarning talablarini qondirishdagi salbiy holatlar kamaytirildi. Ratsionga kiritilgan o‘zgarishlar natijasida sog‘in sigirlarning ratsiondagi energiya ta‘minotini me‘yor darajasida qoldirildi. Bunda energiyaning manbalarining ulushlari qayta ko‘rib chiqilib xashaki lavlagi, bug‘doy yormasi va shrotlar boshqa ozuqalarning kamaytirish hisobiga ko‘paytirildi. Bu yo‘l bilan asosiy maqsadlardan biri oqsil – qand muvozanatining 1:0.3 nisbatdan 1:0.5 gacha ko‘tarishga yoki 60% ga yaxshilashga erishildi.

Sog'in sigirlarni oziqlantirish turini baholashda ular ratsionining tarkibini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki oziqlantirish darajasi o'zgartirishga ratsion tarkibidagi ozuqalar salmog'ini o'zgartirish orqali erishish mumkin.

## 2-jadval

### Respublikamizda yetishtirilgan O'zbekiston – 83 navli xashaki lavlagi ildizmevasining kimyoviy tarkibi (quruq moddaga nisbatan%da) Tajriba guruhlaridagi sigirlar ratsionining tarkibi (ozuqalar to'yimlilikiga nisbatan % hisobida)

Ozuqalar	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
Bug'doy somoni	6,5	6,2	6,3
Turli o't pichanlari	19,5	18,1	18,8
Makkajo'xori silosi	22,1	21,0	21,4
Beda senaji	23,0	22,4	22,7
Xashaki lavlagi	5,3	10,1	8,5
Bug'doy kepagi	17,0	16,0	16,0
Paxta shroti	6,6	6,2	6,3
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

Ma'lumotlari tahlilining ko'rsatishicha, barcha guruhlardagi sigirlar ratsionining tarkibida keskin farq kuzatilmadi faqat xashaki lavlagi ozuqalar tarkibida I va II tajriba guruhlarda nazorat guruhiga nisbatan tegishli 4,8 va 3,2% ga ustunlik qildi. Bu esa barcha tajriba guruhlaridagi sigirlarni oziqlantirish bir xilda tashkil etilganligidan dalolat beradi.

#### Sigirlarning eksterer ko'rsatkichlari

Sigirlarning eksterer ko'rsatkichlarini o'rganish ularning mahsuldorlik yo'nalishlarini aniqlashda va konstitutsiya tiplarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun biz, sigirlarning eksterer o'lchamlarini o'rgandik, uning natijalari 3.2.1-jadvalda keltiriladi.

3.2.1-jadval ma'lumotlardan ko'rinishicha, tajribadagi sigirlarning tana o'lchamlari o'rtasida biroz farq ko'zatildi. Masalan, I va II tajriba guruhdagi sigirlarning yag'rin balandligi nazorat guruhdagi sigirlarnikidan tegishli ravishda 4,8 sm yoki 3,7% ga ( $R < 0,05$ ) va 4,4 sm yoki 3,4% ga ( $R < 0,05$ ), sarg'i balandligi 4,6 sm yoki 3,5% ga ( $R < 0,05$ ) va 4,0 sm yoki 3,0% ga ( $R < 0,05$ ), ko'krak kengligi

2,1 sm yoki 4,2% ga ( $R < 0,01$ ) va 1,5 sm yoki 3,0% ga ( $R < 0,05$ ), ko'krak chuqurligi 3,5 sm yoki 5,1% ga ( $R < 0,01$ ) va 1,3 sm yoki 1,9% ga ( $R < 0,01$ ), ko'krak aylanasi 5,4 sm yoki 2,6% ga ( $R < 0,01$ ) va 3,1 sm yoki 1,5% ( $R < 0,05$ ), tananing qiya uzunligi 3,2 sm yoki 2,2% ga ( $R < 0,01$ ) va 1,9 sm yoki 1,3% ga ( $R < 0,05$ ), orqa do'ng suyak kengligi 1,8 sm yoki 3,6% ga ( $R < 0,05$ ) va 0,9 sm yoki 1,8% ga ( $R < 0,05$ ) va poycha aylanasi 0,5 sm yoki 2,3% ga va 0,4 sm yoki 1,9% ga yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

### 3- jadval

#### Tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana indekslari, %

Indekslar	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
Uzunoyoqlilik	46,7	45,9	47,5
Cho'zinchoqlilik	114,9	113,2	112,6
Ko'krakdorlik	72,2	71,6	72,9
Tos-ko'krak	100,0	100,6	101,2
Zichlilik	137,5	138,1	137,8
Suyakdorlik	16,4	16,2	16,1


Shuningdek, I va II tajriba guruhdagi sigirlar zich rivojlangan tanaga ega bo'lib, ularning zichlilik indeksi nazorat guruhdagi sigirlarnikiga nisbatan tegishli ravishda 0,6 va 0,3% yuqori bo'ldi, suyakdorlik indeksi esa 0,2 va 0,3% past bo'lganligi aniqlandi

#### Sigirlarning II laktatsiyalardagi dastlabki 90 kuni mobaynidagi sut mahsuldorligi

Sigirlar laktatsiyasining dastlabki 90 kuni mobaynida sut mahsuldorligini o'rganish ularning sersut qilish imkoniyatini va mahsuldorligi bo'yicha genetik imkoniyatlarini o'rganish va baholashda katta ahamiyatga egadir. Biz tadqiqotlarimizda turli sigirlarni II laktatsiyasining dastlabki 90 kuni mobaynidagi sut mahsuldorligini o'rgandik. Uning natijalari 3.3.1-jadvalda keltiriladi.

3.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, I va II tajriba guruhlardagi sigirlarning II laktatsiyasining dastlabki 90 kuni mobaynida nazorat guruhdagi sigirlarga nisbatan yuqori sut mahsuldorligiga erishdilar. Masalan, I tajriba guruhidagi sigirlarining ushbu davr mobaynidagi sut miqdori nazorat va II tajriba guruhlardagi sigirlarnikidan tegishli ravishda sut miqdori 135,2 yoki 8,7% ga

( $R < 0,001$ ) va 91,6 kg yoki 5,9% ga ( $R < 0,01$ ), sut yog‘i chiqimi 5,7 yoki 10,0% ga ( $R < 0,01$ ) va 4,4 kg yoki 7,7% ga ( $R < 0,01$ ), sut oqsili chiqimi 6,4 yoki 12,8% ga ( $R < 0,01$ ) va 3,1 kg yoki 6,2% ( $R < 0,05$ ), 4%-li sut miqdori 173,5 yoki 12,2% va 99,9 kg 7,0% ga ( $R < 0,001$ ) yuqori bo‘ldi (1-rasm).



**1-rasm. Tajriba guruhlardagi sigirlarning 90 kunlik tabiiy yog‘likdagi va 4-li sut miqdorlari dinamikasi, kg**

4-jadval

**Tajriba guruhlaridagi sigirlarning sog‘in davridagi dastlabki 90 kun maboynidagi sut mahsuldorligi**

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar					
	Nazorat		I tajriba		II tajriba	
	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv,%	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv,%	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv,%
Sut miqdori, kg	1557,6 $\pm$ 25,24	7,56	1692,8 $\pm$ 28,16***	9,45	1649,2 $\pm$ 29,42**	21,24
Sut tarkibidagi yog‘, %	3,66 $\pm$ 0,07	2,91	3,78 $\pm$ 0,03*	1,61	3,70 $\pm$ 0,05	2,35
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,21 $\pm$ 0,08	2,49	3,34 $\pm$ 0,09*	2,69	3,30 $\pm$ 0,08*	2,42
Sut yog‘i chiqimi, kg	57,1 $\pm$ 1,27	2,22	62,8 $\pm$ 1,42**	2,26	61,5 $\pm$ 1,34**	2,17

Sut oqsili chiqimi, kg	50,0±1,31	2,61	56,4±1,27**	2,25	53,1±1,34*	2,52
4 %-li sut miqdori, kg	1424,6±2 1,6	5,14	1598,1±19,1 ***	4,13	1524,5±21,0***	5,38

Eslatma: \*R<0,05, \*\*R<0,01, \*\*\*R<0,001

Bu ma'lumotlar sigirlarning II laktatsiyasining dastlabki 90 kunidagi sut mahsuldorligi darajasi, sigirlarni ushbu davrda sersut qilish ularning mahsuldorligi bo'yicha genetik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda muhim tadbir ekanligini ko'rsatadi.

5- jadval

**Tajriba guruhlaridagi sigirlarning II-laktatsiyaning 305 kun davridagi sut mahsuldorligi**

Ko'rsatkichlar	Guruhlar					
	Nazorat		I tajriba		II tajriba	
	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %
Sut miqdori, kg	3610,6±106, 12	6,8 6	4225,4±94, 87**	6,56	3833,8±58,8 5*	5,56
Sut tarkibidagi yog', %	3,66±0,019	2,4 5	3,78±0,024	2,86	3,70±0,120	4,43
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,21±0,052	3,4 5	3,34±0,046	2,65	3,30±0,042	2,34
Sut yog'i chiqimi, kg	133,2±2,56	4,3 6	161,4±1,98 **	3,62	143,8±2,03*	3,98
Sut oqsili chiqimi, kg	116,3±1,98	2,9 6	141,1±1,86 **	3,05	126,9±2,14*	4,21
4%-li sut miqdori, kg	3330,7±98,9 2	6,8 6	4035,3±86, 12**	5,53	3594,2±62,8 2*	4,86
Quruq modda, %	12,82	-	12,49	-	12,40	-
Yog'sizlantirilgan quruq sut qoldig'i, %	8,51	-	8,65	-	8,66	-
Sut qandi, %	4,80	-	4,78	-	4,79	-

**Tajriba guruhidagi sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash ko'rsatkichi**

Ko'rsatkichlar	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
Laktatsiya davomida har bir bosh sigirga sarflangan ozuqa, ozuqa birligi	4143,9	4363,5	4290,3
305 kunda sog'ib olingan sut miqdori, kg	3610,6	4225,4	3833,8
4%-li sut miqdori, kg	3330,7	4035,3	3594,2
Bir kg tabiiy yog'likda sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi, kg	1,15	1,03	1,12
Bir kg 4%-li sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi, kg	1,24	1,08	1,19
Har 100 kg ozuqa birligiga ishlab chiqarildi: tabiiy yog'lilikdagi sut, kg	87,13	96,84	89,36
4%-li sut, kg	80,38	92,48	83,78

Jadvaldagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, yuqori sut mahsuldorligiga ega sigirlar guruhlarida ozuqani sut bilan qoplash darajasi ham birmuncha yuqori bo'ldi. Masalan, o'tkazilgan tadqiqotlarimizda eng yuqori sut mahsuldorligiga ega I va II tajriba guruh sigirlari 1 kg tabiiy yog'lilikda sut ishlab chiqarishga nazorat guruhlardagi sigirlarga nisbatan tegishli ravishda 0,12 yoki 11,6% va 0,03 yoki 2,7% ga kam ozuqa birligi sarflandi. Shuningdek, bir kg 4%-li sut ishlab chiqarishga ham I va II tajriba guruhlardagi sigirlar nazarot guruhdagi sigirlarga qaraganda tegishlicha 0,16 yoki 14,8% ga va 0,05 yoki 4,2% ga kam ozuqa birligi sarflandi. Har 100 kg ozuqa birligiga I va II tajriba guruhlardagi sigirlar nazorat guruhidagi sigirlarga nisbatan tegishli ravishda 9,71 kg yoki 11,1% ga va 2,23 kg yoki 2,6% ga tabiiy yog'lilikdagi sut hamda 12,10 kg yoki 15,1% va 3,40 kg yoki 4,2% ga ko'p 4%-li sut ishlab chiqardilar.

**Sigirlarning yil fasllari bo'yicha klinik ko'rsatkichlari**

Sigirlarning tashqi muhit sharoitlariga moslashganlik darajasini va fiziologik holatini baholashda ularning klinik ko'rsatkichlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz shulardan kelib chiqib sigilarning klinik ko'rsatkichlarini o'rgandik va olingan ma'lumotlarini 4.1.1-jadvalda keltiriladi.

4.1.1-jadval ma'lumotlarining tahlilidan ko'rinishicha, sigirlarning oziqlantirish tiplari va yil fasllaridan qat'iy nazar, ularning tana harorati, yurak

urishi va nafas olishi yilning barcha fasllarida fiziologik me'yor talablari darajasida bo'ldi. Shuningdek, yilning yoz va kuz oylarida tajribadagi sigirlarning tana harorati qish oylardagiga nisbatan 0,3 va 0,7 °S, bahordagidan 0,6 va 0,3 °S ga yuqori bo'ldi,

Yurak urish tezligi I va II tajriba guruhidagi sigirlarida yoz faslida qish, bahor va kuzdagidan tegishli ravishda 0,8; 2,3; 1,8 va 1,7; 2,4; 2,4 hamda nazorat guruhida esa 0,8; 1,1 va 1,2 marta yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Tajribadagi sigirlarning nafas olish tezligi ham yoz faslida biroz yuqori bo'lganligi aniqlandi. Xususan, I tajriba guruhida yozda sigirlarning 1 daqiqada nafas olishi kuz-qish va bahordagidan tegishli ravishda 0,9; 2,9 va 2,9 marta, II tajriba guruhida 1,2; 2,7 va 2,5 marta va nazorat guruhida 0,5; 1,5 va 1,3 marta yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Shunday qilib, bizning tadqiqotlarimizda yilning qaysi fasllidan, sigirlarning mahsuldorligidan va ularni oziqlantirish tiplaridan qat'iy nazar, barcha guruhlardagi sigirlarda ham klinik ko'rsatkichlar fiziologik me'yorlar darajasida bo'lganligini ko'rsatdi, bu esa sigirlarning sog'lomligidan dalolat beradi.

Respublikamizning issiq iqlim sharoitida golshtinlashtirilgan qora-ola zotli sigirlarning klinik ko'rsatkichlarining me'yor talablari darajasida bo'lishi, ularning maxsuldorligi va pushtdorlik xususiyatlarini yaxshilashni ta'minlaydi.

## 7-jadval

### Sigirlarning klinik ko'rsatkichlarini yil fasllari bo'yicha o'zgarishi

Ko'rsatkichlar	Guruhlar (p=5)					
	Nazorat		I tajriba		II tajriba	
	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv%	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv%	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv%
<b>Qishda</b>						
Tana harorati, °S	37,8±0,10	0,26	37,9±0,10	0,28	37,8±0,10	0,26
Yurak urishi, 1 daqiqada marta	67,5±0,56	0,82	68,5±0,56	0,84	68,0±0,56	0,82
Nafas olishi, 1 daqiqada marta	26,0±0,4	0,59	26,0±0,4	0,62	26,0±0,4	0,59
<b>Bahorda</b>						
Tana harorati, °S	37,8±0,10	0,26	37,7±0,12	0,31	37,9±0,11	0,29
Yurak urishi,	67,2±0,56	0,82	67,0±0,62	0,92	67,3±0,58	0,86

1 daqiqada marta						
Nafas olishi, 1 daqiqada marta	26,2±0,4	0,59	26,0±0,4	1,17	26,2±0,5	1,92
<b>Yozda</b>						
Tana harorati, °S	38,1±0,05	0,13	39,0±0,08	0,86	38,5±0,06	0,15
Yurak urishi, 1 daqiqada marta	68,3±0,56	0,81	69,3±0,58	0,87	69,7±0,59	0,85
Nafas olishi, 1 daqiqada marta	27,5±0,27	0,98	28,9±0,39	1,39	28,7±0,32	1,15
<b>Kuzda</b>						
Tana harorati, °S	38,1±0,05	0,13	38,5±0,07	0,18	38,7±0,04	0,10
Yurak urishi, 1 daqiqada marta	67,1±0,41	0,61	67,5±0,48	0,71	67,3±0,46	0,68
Nafas olishi, 1 daqiqada marta	27,0±0,34	1,25	28,0±0,4	1,42	27,5±0,38	1,38

**8- jadval**

**Tajriba guruhlaridagi golshtinlashtirilgan sigirlardan foydalanishning  
iqtisodiy samaradorligi  
(2021 yilgi ma'lumotlar)**

Ko'rsatkichlar	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
Har 1 bosh sigirga sarflangan harajatlar, so'm	5590000,00	5899000,00	5791000,00
Shu jumladan ozuqalar uchun harajatlar, so'm	3890000,00	4149000,00	4041000,00
Salmog'i, %	69,6	70,3	69,8
Har 1 bosh sigirdan bazis yog'lilikda sog'ib olingan sut, kg	3610,6	4225,4	3833,8
Har bir bosh sigirdan sog'ib olingan bazis yog'lilikdagi sutning qiymati, so'm	6740800,00	7516400,00	7008200,00
Sof foyda, so'm	1150800,00	1617400,00	1217200,00
Iqtisodiy samaradorlik, %	20,6	27,4	21,0

Shuningdek, II tajriba guruhidagi o'rtacha har bir bosh sigirga laktatsiya mobaynida nazorat guruhdagi sigirga nisbatan 201000,00 so'm ko'p xarajat qilindi. Lekin, har bir boshdan o'rtacha 223,0 kg ko'p bazis yog'lilikda sut ko'p olindi. I va II tajriba guruhlarda 1617400,00 va 1217200,00 so'm sof foyda olingan yoki nazorat guruhiga nisbatan 466600,00 va 66400,00 so'm ko'p foyda olindi. Iqtisodiy samaradorlik darajasi I va II tajriba guruhlarda 27,4 va 21,0% ni tashkil qilgan bo'lsa nazorat guruhiga nisbatan 6,8 va 0,4% ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

### **Sigirlarning yil fasllari bo'yicha klinik ko'rsatkichlari**

Sigirlarning tashqi muhit sharoitlariga moslashganlik darajasini va fiziologik holatini baholashda ularning klinik ko'rsatkichlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz shulardan kelib chiqib sigirlarning klinik ko'rsatkichlarini o'rgandik va olingan ma'lumotlarini 4.1.1-jadvalda keltiriladi.

4.1.1-jadval ma'lumotlarining tahlilidan ko'rinishicha, sigirlarning oziqlantirish tiplari va yil fasllaridan qat'iy nazar, ularning tana harorati, yurak urishi va nafas olishi yilning barcha fasllarida fiziologik me'yor talablari darajasida bo'ldi. Shuningdek, yilning yoz va kuz oylarida tajribadagi sigirlarning tana harorati qish oylardagiga nisbatan 0,3 va 0,7 °S, bahordagidan 0,6 va 0,3 °S ga yuqori bo'ldi,

Yurak urish tezligi I va II tajriba guruhidagi sigirlarida yoz faslida qish, bahor va kuzdagidan tegishli ravishda 0,8; 2,3; 1,8 va 1,7; 2,4; 2,4 hamda nazorat guruhida esa 0,8; 1,1 va 1,2 marta yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Tajribadagi sigirlarning nafas olish tezligi ham yoz faslida biroz yuqori bo'lganligi aniqlandi. Xususan, I tajriba guruhida yozda sigirlarning 1 daqiqada nafas olishi kuz-qish va bahordagidan tegishli ravishda 0,9; 2,9 va 2,9 marta, II tajriba guruhida 1,2; 2,7 va 2,5 marta va nazorat guruhida 0,5; 1,5 va 1,3 marta yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Shunday qilib, bizning tadqiqotlarimizda yilning qaysi fasllidan, sigirlarning mahsuldorligidan va ularni oziqlantirish tiplaridan qat'iy nazar, barcha guruhlardagi sigirlarda ham klinik ko'rsatkichlar fiziologik me'yorlar darajasida bo'lganligini ko'rsatdi, bu esa sigirlarning sog'lomligidan dalolat beradi.

Respublikamizning issiq iqlim sharoitida golshtinlashtirilgan qora-ola zotli sigirlarning klinik ko'rsatkichlarining me'yor talablari darajasida bo'lishi, ularning maxsuldorligi va pushtdorlik xususiyatlarini yaxshilashni ta'minlaydi.

### **XULOSALAR**

1. O'zbekiston hududida chorva mollari, ayniqsa, qoramollar ratsionlarida yetarlicha uglevodli oзуqalarni qo'llamaslik natijasida uglevodlar yetishmasligi natijasida yil davomida qand –oqsil munosabatining 0,3-0,4:1 nisbatga tushib ketishi kuzatiladi.

2. Sog'in sigirlarning qishgi ratsionidagi uglevodlarning kamligi va oqsil-qand nisbatini xashaki lavlagi yordamida me'yorlashtiradi:

3. Sifatli oзуqalar sog'in sigirlar mahsuldorligiga ijobiy ta'sir etadi va ularning sut mahsuldorligini o'rtacha har bir sigirga 1,4 kg yoki 8,1% ga oshiradi ( $R>0,999$ );

4. Sigirlarning sut berish yoyining tushish ko'rsatkichini 21,4 %ga mustahkamlaydi;

5. Xashaki lavlagi bilan oziqlantirish hisobiga sigirlar sutining bazis yog'liqdagi sut miqdorini 11,5 foizga oshiradi ( $R>0,95$ ).

6. Tajribadagi har bir sigirdan o'rtacha 10,1% yog', 7,3% oqsil va 41,4% qand ko'p olindi va bu mahsulotlar olinishiga 6,7% oзуqa birligi ko'p sarflandi

7. Tajribadagi sigirlar qonidagi karotin miqdori 121,6%, oqsil 0,4 %, kalsiy 6.1 % va qand miqdori 21,9 % ga oshishi kuzatildi ( $R>0,95$ ).

8. Xashaki lavlagining sog'in sigirlar ratsionida qo'llash orqali laktatsiya davomida 4% sut miqdori nazorat guruxidan tajriba guruxi 704,6 kg ko'p mahsulot berganligi aniqlandi.

9. Sog'in sigirlarga qish davrida qilingan jami oзуqalar xarajatiga nazorat guruhida 1,63 so'mlik, tajriba guruhida 1,74 so'mlik yoki 27.6% ko'p mahsulotlar olindi va tajriba guruhidagi rentabellik darajasi nazoratga nisbatan 15,1% ga oshdi.

10. Tadqiqotlarimizda eng yuqori sut mahsuldorligiga ega I va II tajriba guruh sigirlari 1 kg tabiiy yog'lilikda sut ishlab chiqarishga nazorat guruhlardagi sigirlarga nisbatan tegishli ravishda 0,12 yoki 11,6% va 0,03 yoki 2,7% ga kam oзуqa birligi sarflandi.

### **Ishlab chiqarishga amaliy tavsiyalar**

1. Sog'in sigirlarni to'la qiymatli oзуqalar bilan oziqlantirishda sarf bo'ladigan oзуqalar salmog'ining to'yimlilikiga nisbatan 10% uglevodga boy lavlagi oзуqasini ratsionga kiritish tavsiya etiladi.

2. Sigirlarni yuqori darajada to'yimli moddalar bilan muvofiqlashtirilgan tarzda oziqlantirishda har bir oзуqa birligi hisobiga qandning oqsilga nisbatini 0,8:1,2 nisbatda bo'lishini ta'minlash tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ, ПРИСУЖДАЮЩИЙ УЧЁНУЮ СТЕПЕНЬ ПОД  
НОМЕРОМ № PhD.06/09.07.2020.Qx/V.117.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ФИЛИАЛЕ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ,  
ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ САМАРКАНДСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ  
МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ**

**ЯНГИБОЕВ АБДИМАЛИК ЭШМУРАДОВИЧ**

**ВЛИЯНИЕ СОРТА КОРМОВОЙ СВЕКЛЫ УЗБЕКИСТАН -83,  
СОЗДАННОГО В НАШЕЙ РЕСПУБЛИКЕ, НА МОЛОЧНУЮ  
ПРОДУКТИВНОСТЬ КОРОВ**

**06.02.03 - Частная зоотехния. Технология производства продуктов животноводства**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2021.2.PhD/Qx778 Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан.**

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Ташкентском филиале Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) размещён на веб-сайте Научного совета ([www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz)) и информационного образовательного портала «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)) на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)).

**Научный руководитель:**

Кандидат сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник

**Куччиев Охунжон Раззокович**

**Официальные оппоненты:**

Доктор сельскохозяйственных наук

Доктор философии по сельскохозяйственным наукам

**Ведущая организация:**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёной степени доктора философии (PhD) сельскохозяйственных и ветеринарных наук под номером PhD.06/09.07.2020.Qx/V.117.01 при Ташкентском филиале Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий от «\_\_» \_\_\_\_\_ часов. 2022 года. (Адрес: 100117, г Ташкент, Чиланзарский район, квартал 20, дом 35 А. Тел: (99870) 9758311); e-mail: [svmi.tfiyandex.ru](mailto:svmi.tfiyandex.ru), [www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно - ресурсном центре Ташкентского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий (зарегистрировано под номером №\_\_). Адрес: 100117, г.Ташкент, Чиланзарский район, квартал 20, дом 35 А. Тел: (99870) 9758311); e-mail: [svmi.tfiyandex.ru](mailto:svmi.tfiyandex.ru), [www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz); факс: (99870) 9758311).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_ 2023 года.  
(Протокол реестра № \_\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_ 2023года)

**Н.Ю.Юлдашев**

Научный совет, присуждающий  
учёные степени председатель,  
д.в.н., профессор

**М.Э.Гойипова**

Научный секретарь Научного совета,  
присуждающего учёную степень,  
д.ф.в.н. (PhD)

**С.И.Мавланов**

Председатель научного семинара  
при научном совете, присуждающем  
учёную степень, д.в.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

### **Актуальность и востребованность темы диссертации.**

На сегодняшний день увеличивается спрос на продукты животноводства - мясо, мясопродукты, молоко и молочные продукты, ставшие повседневными потребностями населения планеты. Кормовая свекла имеет большое значение в укреплении кормовой базы в животноводстве. В 1 кг корнеплода свеклы содержится 0,11-0,12 питательных единиц, 120 г сухого вещества, 12-13 г сырого переваримого протеина, 0,50 г кальция, 0,20 г фосфора. В 1 кг листьев стебля содержится 0,10-0,11 питательных единиц, 21 г перевариваемого белка, в 1 кг листьев свеклы содержится 0,16 питательных единиц, 19 г перевариваемого белка. (И.В.Мартынюк, 2009). В животноводстве важно создать прочную кормовую базу, организовать полноценное кормление скота, обеспечить его достаточно питательными кормами, чтобы повысить продуктивность животных и получить здоровое потомство.

